

ZAMONAVIY TARJIMONLIK TA'LIMIDAGI AYRIM YO'NALISHLAR VA YANGI MALAKAVIY TALABLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Raxmanov Botir Maxmudovich

o'qituvchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti, Roman – german tillari tarjimashunosligi kafedrası

botirrahmonov67@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarjimashunoslik va tarjimon mutaxassisligiga oid bilim va malakalarning zamonaviy jamiyat talablari hamda sharoitlari moslashuvi haqida fikr yuritiladi. Global kommunikatsiylarning keskin kengayishi va ma'lumotlar oqimining to'xtovsiz ravishda tezlashib borishi natijasida, bir vaqtning o'zida bir necha tillardagi ma'lumotlarni o'zaro almashuvi jarayoni ham o'ta murakkab xususiyat kashf etmoqda. Bunday sharoitda tarjimonlar tayyorlash va ularning ta'limini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar talab etiladi. Xulosa sifatida, zamonaviy tarjima ta'limi va tarjimonlik mutaxassisligiga oid muammolarni hal qilishda sohaga xos bo'lgan bilim, malaka va tajribalarning o'rni va ahamiyatiga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy tarjima ta'limi, tarjimaga oid bilim va malakalar, kasbiy ko'nikmalar, zamonaviy tarjima texnologiyalari, amaliy tarzima ko'nikmalari, madaniyatlararo muloqat.

Abstract: This article discusses the adaptation of knowledge and skills of translation studies and the profession of translator to the requirements and conditions of modern society. As a result of the rapid expansion of global communications and the constant acceleration of the flow of information, the process of exchanging information in several languages at the same time is also becoming extremely complex. In such conditions, modern approaches to the training of translators and the organization of their education are required. In conclusion, attention is paid to the role and importance of knowledge, skills and experience specific to the field in solving problems related to modern translation education and the profession of translator.

Keywords: modern translation education, knowledge and skills related to translation, professional skills, modern translation technologies, practical translation skills, intercultural communication.

Аннотация: В данной статье рассматривается адаптация знаний и навыков переводоведения и профессии переводчика к требованиям и условиям современного общества. В результате быстрого расширения глобальных коммуникаций и постоянного ускорения потока информации, процесс обмена информацией на нескольких языках одновременно также становится чрезвычайно сложным. В таких условиях требуются современные подходы к подготовке переводчиков и организации их образования. В заключение уделяется

внимание роли и значению знаний, навыков и опыта, специфичных для данной области, в решении проблем, связанных с современным переводческим образованием и профессией переводчика.

Ключевые слова: *современное переводческое образование, знания и навыки, связанные с переводом, профессиональные навыки, современные переводческие технологии, практические навыки перевода, межкультурная коммуникация.*

Tezkor axborot oqimlari qurshovida kechayotgan bugungi kunda tarjima sohasi, xususan, tarjima qilishga o'qitish bilan bog'liq ta'lim jarayonlari tarjimaning mohiyati va undagi tarjimonning o'rni haqidagi qarashlarda o'ziga xos ayrim o'zgarishlar kechayotganini namoyon qilmoqda. Agar badiiy tarjima istisno qilinadigan bo'lsa, ming yillar davomida sayqallangan va an'anaviy xususiyat kasb etgan tarjima, ma'lumki, o'zida bir tildagi ma'lumotni ikkinchi bir tilga asosan tarjimonning o'zi tamonidan amalga oshirishni nazarda tutadi. Ammo bugungi kunga kelib, tarjima – bu shunchaki ma'lumotni yetkazib berish emas, balki asl matnga asoslangan va maqsadga yo'naltirilgan yangi bir matnni yaratishni va bu jarayonda tarjimonning ijodiy mahorati bilan birga keng qamrovli va o'ta marakkab raqamli texnologiyalar hamda dasturlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda⁸. Tarjima bilan bog'liq mehnat bozorida yuzaga kelayotgan yangi talab va takliflar ayni chog'da bir qator yangi an'analarni shakllantirmoqda va bu masala, o'z navbatida, tarjimaga o'qitish jarayonlaridagi yangi ta'lim texnologiyalari va o'qitish usullarida ham o'z aksini topmoqda.

Tarjima ta'limi an'anaviy jihatdan, asosan, talabalarda tarjimaga oid nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallash, tarjima turlari va usullari o'rganish hamda chet tilidagi bilimlarini rivojlantirish kabi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan. So'ngi o'n yilliklarga kelib, ta'limdagi asosiy e'tibor tarjimaning amaliy jihatlari bilan bir qatorda tezkor va sifatli bo'lishiga e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kun tarjimonidan bevosita amaliy faoliyatni qay darajada samarali oshira olishi talab qilinmoqda. Hozirda u nafaqat tarjimaga oid an'anaviy bilimlarni egallagan bo'lishi, balki murakkab kompyuter texnologiyalarini o'z ichiga oluvchi amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lishi lozim.

Mazkur talablarni e'tiborga olgan holda zamonaviy tarjima ta'limida an'anaviy bilimlarga qo'shimcha tariqasida talabalar quyidagi bir qator amaliy malaka va ko'nikmalarni ham egallashlari⁹ maqsadga muvofiq:

- tarjima qilinayotgan tildagi asl matnni va tarjima qilingan tildagi yakuniy matnlarni tahlil qilish va ularning mazmun-mohiyati, tarkibiy tuzilishi, uslubi, ifoda

⁸ Ingrid Kurz, Angela Moisl, Berufsbilder für Übersetzer und Dolmetscher: Perspektiven nach dem Studium. WUV- Univ.-Verlag, 1997, 193 S.

⁹ Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. Учебное пособие. М.: ЭТС, 2002. 424 с.

ohangini aniqlay olish ko'nikmasi. Bunda har ikkala tilga oid barcha bilimlar, shu jumladan, tilshunoslikning fonetika, morfologiya, grammatika, leksika va stilistika kabi sohalariga oid bilimlarini amalda qullay olish zarur bo'ladi;

- tarjimada tadqiqot ko'nikmasi, ya'ni turli sohalarga (tibbiyot, iqtisod, huquq va b.) maxsus matnlarni tarjima qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni qidirib topish va ularni yangi matn yaratish jarayonida mohirlik bilan qo'llay olish;

- ijodiy faoliyat ko'nikmasi, asl matndagi mazmun-mohiyatni anglab olish (interpretatsiya qilish) va uni yangi matn yaratishda mohorat bilan qayta ijod qilish. Bunda asl tekstning shakli va mazmuniga mos ravishda yangi tarjima matnini yaratish nazarda tutilib, masalan, sud ajrimi matnini tarjimada ham barcha xususiyatlarini qayta yarata olishga erishish talab etiladi;

- madayatlararo muloqatga oid bilim va ko'nikmalar. Bunda asl matn va tarjima matnidagi tillar o'rtasida madaniy farqlarni e'tiborga olish va ularni tarjimada maqsadga mos ravishda ifoda qilish nazarda tutiladi;

- kommunikativ ko'nikma, ya'ni mijoz bilan erkin va mazmunli muloqatni tashkil qila olish, muloqatdan manfaatdor tamonlar bilan mohirona aloqa o'rnatish ko'nikmasi. Xususan, xushmuomalalik, hozirjavoblik, suhbatdoshni o'ziga jalb qila olish kabi xususiyatlarni rivojlantirish zarur.

Mazkur ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun tarjima ta'limi jarayonida turli xil usullar va tadbirlardan keng foydalaniladi¹⁰. Bunda, avvalambor, talabalar rejalashtirilgan mavzularga xos bo'lgan matnlarni tahlil qilishadi. Bu jarayonda tarjimani qanday tashkil etish va unda qanday usullar va vositalardan samarali foydalanish mumkinligi haqidagi savollarga javob topadilar. Ushbu bosqichda talabalarning o'qituvchi rahbarligi ostida tarjima qilishi alohida ahamiyatga ega bo'lib, ustoz ularga tarjima vositalarini tanlashda, qaysi uslubda tarjima qilish bo'yicha qaror qabul qilishda va tarjimonlik ko'nikmalarini takomillashtirishda bevosita yordam ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu jarayonda talabalarning mustaqil tarjima qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, har bir talaba o'zga xos mustaqil va mualliflik tarjima uslubini shakllantirishga yo'naltiriladi.

Zamonaviy tarjima jarayonini o'zlashtirishda tarjima vositalaridan samarali foydalana olish ko'nikmasi alohida o'rin tutadi. Ma'lumki internet rivojlanib borayotgan bir sharoitda, undagi turli xildagi matnlarning tahlili va tarjimasiga ixtisoslashtirilgan dasturlar, elektron lo'g'atlar, matnni tahrir qilish, qayta ishlash va imlo xatolarni tuzatish kabi vazifalarni bajarishda yordam beruvchi raqamli

¹⁰ Reiß Katharina, Vermeer Hans J. Grundlegung einer allgemeinen Translationstheorie, Tübingen: Niemeyer. 1991.

ilovalardan foydalana olish zarur bo'ladi¹¹. Shuni alohida qayd etish lozimki, bugungi kunda tarjimada sun'iy aqlning imkoniyatlaridan samarali foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

So'ngi paytlarda internet tarmog'ida sun'iy aqlning matn bilan ishlashga ixtisoslashgan bir qator dasturlari mavjud. Ammo ulardan maqsadli foydalanish tarjimonidan nafaqat kompyuter texnologiyalarini chuqur bilish, balki matn ustida mohirona ishlay olish ko'nikmasini ham talab qiladida. Shu o'rinda sun'iy aqlning imkoniyatlari yanada kengayib borayotgani va bu narsa kelajakda tarjimonlik mutaxassisligini mehnat bozoridan siqib chiqarishi yoki cheklab qo'yishi haqidagi xavotirli qarashlar yuzaga kelayotganini alohida qayd etish lozim. Bizning fikrimizcha, masalaga bunday yondashish kelajakda o'zini oqlamaydi, aksincha har bir tarjimon sun'iy aql imkoniyatlaridan tarjima jarayonini tezroq va sifatli amalga oshirish uchun qo'shimcha vosita sifatida qabul qilishi maqsadga muvofiq. Amaliy tarjima jarayonlarida orttirilgan tajribalarga tayaniladigan bo'lsa, sun'iy aql yordamida amalga oshirilgan matnlar tarjimasining deyarli barchasi tarjimonning qayta tahlili va tarjimasini talab qiladida. Ayrim hollarda esa, tarjimaning maqsadidan kelib chiqib, sun'iy aql amalga oshirgan tarjimani hatto butunlay qaytadan yaratish zarurati ham yuzaga keladi. Bu holat, o'z navbatida, kutilgandan ko'ra ko'proq vaqt va qo'shimcha mehnatni talab qiladi. Bundan tashqari, mazkur usulda tarjima qilingan matnni qayta ishlash va nashrga tayyorlash uchun o'ta malakali tarjimon va muharrir mehnatiga ehtiyoj paydo bo'ladi¹².

Amaliy tarjimadagi malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash uchun talabalar amaliy tarjima jarayonini o'z ichiga olgan turli tarjima loyihalarida ishtirok etish va tarjima faoliyati bilan shug'ullanuvchi turli korxonalarda amaliyot o'tash orqali egallanadi.

Shu bilan birga, zamonaviy tarjima jarayonlari mutaxassislardan keng qamrovli madaniy bilimlarni egallashni talab qilmoqda. Mazkur yo'nalishdagi bilimlar shartli ravishda va eng kamda ikkita madaniyat haqidagi dunyoqarashga ega bo'lishni nazarda tutadi. Tarjimon, avvalambor, o'z tiliga va madaniyatiga xos bo'lgan bilimlarni bilishi, turli an'analar, tarixiy, siyosiy, ijtimoiy va diniy tushunchalarga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga, xuddi shunday bilimlarni u o'rganayotgan chet tilida ham egallashi lozim. Mazkur bilim va ko'nikmalar tarjimani qabul qiluvchi tomonga maqsadli va vaziyatga mos ravishda amalga oshirishda o'ta muhim rol o'ynaydi. [2, c. 135].

Tarjimonning madaniy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida bir qator usul va vositalardan foydalaniladi. An'anaviy tarzda talabalarga tarjima tilidagi

¹¹ Современные методы подготовки переводчиков. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-metody-podgotovki-perevodchikov/viewer> (Дата обращения: 15.09.2025).

¹² Гамбье И. Перевод и переводоведение на перекрестке цифровых технологий // Вестник СПбГУ. Серия 9. 2016. Вып. 4.

dabiyotlarni, xususan, tili o'rganilayotgan mamlakatning tarixi, madaniyati, an'analari va urf-odatlarini haqida ma'lumotlarni o'qish tavsiya qilinadi¹³. Ayniqsa chet tilidagi kinofilmlarni tomosha qilish, turli muzey va san'at galariyalarini borib ko'rish yoki ulardagi san'at asarlari bilan tanishish, chet tili vakili bilan tirik muloqatga kirishish, milliy va etnik o'ziga xosliklarni o'rganish tarjimonidagi madaniy bilim va ko'nikmalarni yanada rivojlantirishga hissa qo'shadi. Tarjimon doimiy ravishda o'zi tarjima qilayotgan til egalarining madaniy va ijtimoiy-siyosiy hayotidan xabardor bo'lishi, yuzaga kelayotgan o'zgarishlarni kuzatib borishi lozim va bu, o'z navbatida, madaniyatlararo muloqatning samarali va maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirilishiga xizmat qiladi¹⁴.

Bugungi kunda zamonaviy tarjimon ta'limida yana bir muhim bo'lgan yo'nalish, bu informatsion kompyuter texnologiyalari, tarjima dasturlari, elektron lo'g'atlar va ma'lumot bazalarini ish jarayonida samarali qo'llay olishdir. Mazkur texnologiyalar talabalarga tarjima qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga va ishning sifati va samarasini oshirishga yordam beradi

Yuqarida qayd etilgan fikrlarga xulosa tariqasida qayd etish lozimki, bugungi kunda tarjimaga o'qitishni tashkil etishda asosiy e'tibor tezkor axborot almashinuvi va madaniyatlararo muloqatning samarali kechishini ta'minlashga qaratilishi lozim. Tarjimon nafaqat o'rganayotgan chet tilini mukammal bilishi, balki til, tarix, madaniyat kabi qator sohalarda ham yetarlicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi. Zamonaviy tarjimonlarning ta'lim jarayoni bugungi kun mehnat bozorida yuzaga kelayotgan talablarni qondirishga qodir bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlashni nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ingrid Kurz, Angela Moisl, Berufsbilder für Übersetzer und Dolmetscher:
2. Perspektiven nach dem Studium. WUV-Univ.-Verlag, 1997, 193 S.
3. Reiß Katharina, Vermeer Hans J. Grundlegung einer allgemeinen
4. Translationstheorie, Tübingen: Niemeyer. 1991.
5. Kadrić, Mira. 2011. Dialog als Prinzip. Für eine emanzipatorische Praxis und Didaktik des Dolmetschens. Tübingen: Gunter Narr.
6. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. Учебное пособие. М.: ЭТС, 2002. 424 с.
7. Миньяр-Белоручева А.П., Покровская М.Е. Код культур в зеркале перевода // Язык и текст. 2015. Т. 2. №4. С. 30–46.

¹³ Миньяр-Белоручева А.П., Покровская М.Е. Код культур в зеркале перевода // Язык и текст. 2015. Т. 2. №4. С. 30–46.

¹⁴ Kadrić, Mira. Dialog als Prinzip. Für eine emanzipatorische Praxis und Didaktik des Dolmetschens. Tübingen: Gunter Narr, 2011.

8. Современные методы подготовки переводчиков. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-metody-podgotovki-perevodchikov/viewer> (Дата обращения: 15.09.2025).
9. Гамбье И. Перевод и переводоведение на перекрестке цифровых технологий // Вестник СПбГУ. Серия 9. 2016. Вып. 4.